



## SPIRTLAR HAQIDA MA'LUMOT

*Abdumajidova Sevinch Anvarovna*

*Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq Filiali*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada spirtlarlarning umumiy formulasi, fizik xususiyatlari, Spirlarning uglevdorodlardan asosiy farqlari va Etil spirtining qo'llanilish sohalari bilan tanishamiz.

**Kalit so'zi** Spirtlar, Fizik xususiyatlari, Vodorod bog'lanish, Dipol-dipol, Etil spirit, vendervals, n-butil spirit, Tuzilish, qaynash harorati.

Spirtlar deb, R – OH umumiy formulaga mos keluvchi birikmalarga aytildi, bunda R–alkil yoki almashingan alkil guruhlari. Bu guruxlar birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi; atsiklyoki sikl, qo'shbog' yoki uchbog', galogen yoki aromatik halqa saqlashi mumkin. Barcha spirtlar gidroksil (OH) guruxi yoki guruxlari saqlaydi va ularning fizik yoki kimyoviy xususiyatlarini ayni shu guruxlar belgilab beradi. R ning tuzilishi spirlarning ba'zi reaksiyalardagi xususiyatini belgilab beradi va reaksiya tezligiga ta'sir ko'rsatadi. Gidroksil guruxi aromatik xalqa bilan bevosita bog'langan birikmalar – fenollar deb atalib, ularning xususiyatlari spirlarnikidan shunchalik katta farq qiladiki, bu sinf birikmalarini alohida o'rganish tavsiya etiladi.

Fizik xususiyatlari. Bizga ma'lum bo'lgan ko'plab qutblanmagan birikmalarda uglevdorodlar uchun xos bo'lgan fizik xususiyatlarning barchasini kuzatish mumkin: qaynash va suyuqlanish xaroratlarining nisbatan past ekanligi, qutblanmagan erituvchilarda erishi va o'z navbatida qutblangan erituvchilarda, masalan, suvda erimasligi.

Spirt molekulasiida kuchli qutblangan gidroksil guruxi saqlagani va bu kuchli qutblangan guruxda vodorod atomining mavjudligi ularning fizik xususiyatlarini oddiy uglevdorodlardan keskin farq qilishiga sabab bo'ladi.

Ba'zi muhim spirtlarning fizik xususiyatlari 1-jadvalda berilgan.

Spirit nomi	Formulasi	T-suyuq <sup>o</sup> S	Tqayn <sup>o</sup> S	20 °S dagi zichligi	Suvda eruvchanligi g/100 g
<b>Metil</b>	CH <sub>3</sub> OH	-97	64,5	0,793	∞
<b>Etil</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 115	78,3	0,789	
<b>n-Propil</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 126	97	0,804	
<b>n-Butil</b>	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 90	118	0,810	
<b>n-Pentil</b>	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 78,5	138	0,817	
<b>n-Geksil</b>	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 52	156,5	0,819	
<b>n-Geptil</b>	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 34	176	0,822	
<b>n-Oktil</b>	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> CH <sub>2</sub> OH	- 15	195	0,825	

Spirtlarning uglevodorodlardan asosiy farqi, ularning (dastlabki spirtlarning) suvda yaxshi erishi hisoblanadi. Spirit molekulasining qutblangan OH-guruxlari saqlashi, suv molekulasidagi molekulalararo ta'sir kuchlari kabi, kuchlar ta'sirida bo'lishini ta'minlaydi. Natijada ikki turdag'i molekulalarning aralashishi kuzatiladi; bunda suv yoki spirit molekulasini bir-biridan ajratish uchun sarflanadigan energiya, suv va spirit molekulalari orasida bog' hosil bo'lishi hisobiga qoplanadi. Bunday xususiyat OH-guruxi molekulaning asosiy qismini tashkil etuvchi quyi spirtlar uchun xosdir. Uzun alifatik zanjirga ega bo'lган yuqori spirtlar uchun alkanlarning fizik xususiyatlari mos keladi. Uglerod atomining soni ortishi bilan suvda eruvchanligining o'zgarishini quyidagicha ko'rish mumkin: dastlabki uch birlamchi-spirit suv bilan yaxshi aralashadi; 100 g suvda 8 g n-butil spiriti; 2 g npentil spiriti, 1 g – geksil spiriti, yuqori spirtlar esa yanada kam erishini ko'rsatadi.

Spirtdagi uglerod atomining soni ortishi bilan qaynash xaroratining ortishini, tarmoqlanish ortishi bilan esa kamayishini kuzatish mumkin. Spirtlarning qaynash xarorati mos uglevodorodlarning qaynash xaroratidan sezilarli katta.

Vodorod bog'lanish. Assotsiatsiya. Uglevodorodlarning qaynash xaroratiuning tuzilishi va molekulyar massasi bilan belgilanadi; bu o'zaro vendervals kuchlar hisobiga ta'sirda bo'luvchi molekulalar uchun xos.

### Tuzilish va qaynash xarorati

Nomi	Tuzilishi	Molekulyar massasi	Dipol momenti	Tqay. °S
<b>n-pentan</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>3</sub>	72	0	36
<b>Dietil efiri</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> OCH <sub>2</sub> CH <sub>3</sub>	74	1,18	35
<b>n-propil spirt</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> OH	79	2,10	47
<b>n-butanal</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CHO	72	2,72	76
<b>n-butil spirti</b>	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> OH	74	1,63	118

2-jadvalda bir-biriga yaqin molekulyar massaga ega bo'lgan, lekin tuzilishi bilan farq qiluvchi birikmalar taqqoslangan. Bundan n-pentan zanjirining o'rtasidagi -CH<sub>2</sub>- metilen guruxi o'mida (molekulyar massasi 14), kislorod atomi (molekulyar massasi 16) mavjudligi, qaynash xaroratiga ta'sir etmasligini va deyarli bir xil eganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga n-butil spirtining qaynash xarorati deyarli 80 °S ga yuqori ekanligini kuzatamiz.

Avval aytganimizdek spirtlar kuchli qutblangan OH-guruhi saqlaydi, shuning uchun qaynash xaroratini ayni xususiyat bilan bog'lash mumkin. Yana birmuhim omil ham mavjudki, n-butil spirtining dipol momenti (1,63) dietilefirining dipol momentidan (1,18) katta va n-pentanning (0) dipol momentidan juda katta ekanligi bilan bog'liq. Dipol-dipol ta'sir natijasida vujudga keluvchimolekulalararo kuchlarni yengish uchun katta energiya kerak bo'ladi va mosravishda qaynash yuqori xaroratlarda amalga oshadi.-jadvaldagi boshqa birikmalarni taqqoslashlar, boshqa qo'shimcha omillarning mavjudligini va bu omillar OH-guruxidagi o'ziga xoslik bilan bog'liqligini ko'rsatadi. S = O guruxi saqlovchi aldegidning dipol momenti (n-propilxlorida ham) n-butil spirtining dipol momentidan ancha katta, lekin shunga qaramasdan ayni birikmalarning qaynash xaroratlari ancha past.

Spirtlardagi OH guruxining ta'siri juda katta va buni faqatgina qutblanishning ortishi bilan bog'lab tushuntirish mumkin emas.

Etil spirti, etanol insoniyat foydalanuvchi qadimiy organik birikmalardan biri bo'lib, muhim ahamiyatga ega. Etil spirti lok-bo'yoq, parfyumeriya sanoatida organik sintezda, laboratoriyada erituvchi sifatida keng ishlatiladi. Bundan tashqari etil spirti ko'plab mahsulotlar sintezi uchun dastlabki xom ashyo hisoblanadi (buni spirlarning reaksiyalarini o'rganish orqali bilib olamiz). Etil spirti qo'llanilishi maqsadiga qarab turli mahsulotlardan – etilenden gidratatsiya orqali, shakarning fermentativ gidrolizi orqali, neftdan va turli boshoqli ekinlardan olinadi. Etil spirti – spirtli ichimliklar ishlab chiqarishda ham foydalaniladi. Bu maqsadlarda spirt turli o'simliklardan ajratib olingan shakarni fermentativ gidrolizi orqali olinadi. Ichimliklarning xususiyati xom ashyoning tabiatini (bug'doy yoki arpa, uzum yoki qulupnay, malina, kaktus yoki momoqaymoqdan), gidroliz jarayonini amalga oshirish sharoiti, gidroliz mahsulotlarini ajratish usuli bilan bog'liq. Tibbiyat nuqtai nazaridan etil spirti narkotik moddalar qatoriga kiritilgan; boshqa spirlarga nisbatan kam zaharli. Etil spirtining turli spirtli ichimliklar sifatida istemol qilinishi bilan birga, sanoat miqyosida katta masshtablarda foydalanilishi, muhim bir muammo yechimini topishni taqazo etadi: sanoatda qo'llaniluvchi spirt istemol uchun yaroqsiz bo'lishi kerak. Bu muammo spirtga denaturant yoqimsiz ta'm beruvchi yoki uni zaharli qiluvchi moddalar qo'shish orqali hal etiladi. Bunday denaturatlarning yuzga yaqin turi bo'lib, bulardan metil spirti va aviatsiya benzini qo'shish keng foydalaniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Нейланд О.Я. «Органическая химия». М.: «Высшая школа». 1990.
2. Терней А. «Современная органическая химия». М.: «Мир». 1981.
3. Z. Sobirov. Organik Kimyo. –Toshkent: “Aloqachi” nashriyoti, 2005
4. Pirmuhammedov I. M. Organik kimyo. -Toshkent: “O'zbekiston”, 1992
5. Axmedov K.N., Yo'ldoshev X.Y. Organik kimyo usullari. -Toshkent: “O'qituvchi”, 1998
6. Umarov V. Organik kimyo. -Toshkent: “Iqtisod”. 2007 yil